

MILLIY VA UMUMMADANIY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Qadirova Dilnoza Baxtiyorovna

Namangan davlat universiteti, Jahon tillar fakulteti Ingliz tili kafedrasida katta o‘qituvchisi
mkdilnoz.qodirovaxon@gmail.com

Daminjanov Sobirjon Muhammadjonovich

Ingliz tili va adabiyoti kafedra mudiri, dotsent
sobirjon.daminjanov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18973652>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari hamda innovatsion yondashuvlari yoritiladi. Globalizatsiya sharoitida xorijiy til o‘qituvchilari nafaqat lingvistik savodxonlikka, balki o‘z milliy madaniyatini anglash, boshqa xalqlarning madaniy qadriyatlarini tushunish va muloqot jarayonida moslashuvchanlik ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik texnologiyalar – mediaresurslar, raqamli ta‘lim platformalari, madaniyatlararo muloqotni rivojlantiruvchi interaktiv metodlar qo‘llashning samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, ingliz tili darslarida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni integratsiyalashgan holda shakllantirish modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: milliy kompetensiya, umummadaniy kompetensiya, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, innovatsion texnologiyalar, pedagogik model, madaniyatlararo muloqot.

Аннотация: В статье рассматриваются научно-методические основы и инновационные подходы к совершенствованию национальных и общекультурных компетенций будущих учителей английского языка. Обосновывается, что в условиях глобализации преподаватель иностранного языка должен владеть не только лингвистическими знаниями, но и осознанием собственной национальной культуры, пониманием культурных ценностей других народов и развитой межкультурной коммуникацией. В исследовании анализируется эффективность современных педагогических технологий – медиаресурсов, цифровых образовательных платформ, интерактивных методов развития межкультурного взаимодействия. Также предлагается модель интегрированного формирования национальных и общекультурных компетенций на занятиях по английскому языку.

Ключевые слова: национальная компетенция, общекультурная компетенция, будущий учитель английского языка, инновационные технологии, педагогическая модель, межкультурная коммуникация.

Annotation: This article explores the scientific-methodological foundations and innovative approaches to enhancing national and general cultural competencies in the training of prospective English language teachers. It argues that in the context of globalization, foreign language teachers must possess not only linguistic proficiency but also a strong awareness of their national identity, understanding of other cultural values, and the ability to engage in effective intercultural communication. The study examines the effectiveness of modern pedagogical technologies, including media resources, digital learning platforms, and interactive methods that foster intercultural competence. Furthermore, an integrated model for developing national and general cultural competencies within English language instruction is proposed.

Keywords: national competence, general cultural competence, prospective English language teacher, innovative technologies, pedagogical model, intercultural communication.

Kirish

Zamonaviy globallashtirish sharoitida ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy roli keskin o‘zgarib bormoqda. Endilikda u faqat grammatik bilimlar egaligiga asoslangan mutaxassis emas, balki turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qila oladigan, milliy qadriyatlar mazmunini anglab yetgan, o‘z madaniyatini xalqaro maydonda munosib namoyish eta oladigan shaxs bo‘lishi talab etiladi [1]. CEFRning 2020-yilda yangilangan talqinida “socio-cultural knowledge”, “intercultural competence”, “pluricultural repertoire” kabi komponentlar til o‘rgatish jarayonining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatildi. Bu esa ingliz tili o‘qituvchilari tayyorlanadigan oliy ta‘lim muassasalarida madaniy

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

kompetensiyalarni rivojlantirishga nisbatan yuqori talablarni yuzaga keltirmoqda. Ayni paytda O‘zbekiston OTMLarida ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida milliy va umummadaniy kompetensiyalarning integratsiyalashgan holda shakllantirilishi hali to‘liq tizimlashtirilmagan. O‘quv dasturlarida ko‘pincha nazariy ma‘lumotlar ustunlik qiladi, amaliy madaniyatlararo muloqot, madaniy taqqoslash, real kommunikativ vaziyatlarni tahlil qilishga yetarli e‘tibor berilmaydi. Talabalarda tanqidiy madaniy qarashlar, milliy identitetni chuqur anglash, global madaniyatlar bilan bog‘lanish ko‘nikmalari yetarlicha shakllanmaydi [2]. Shuning uchun ham bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni chuqur shakllantiruvchi innovatsion texnologiyalar asosidagi pedagogik model ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Ushbu tadqiqotning maqsadi - bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini aniqlash, tajriba asosida ularni takomillashtirishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish va o‘quv jarayoniga joriy etishdan iborat [3].

Metodlar

Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy madaniyatlararo ta‘lim yondashuvlariga asoslanadi. Avvalo, Byramning Intercultural Communicative Competence modeli, Bennettning madaniyatlararo sezgirikni rivojlantirish nazariyasi, Deardorffning madaniy kompetensiya modeli, shuningdek CEFRning yangi “pluricultural” descriptorlari ilmiy asos sifatida olindi [4]. Ushbu nazariy yondashuvlar asosida milliy va umummadaniy kompetensiyalar tarkibi: attitudinal (munosabat), knowledge (bilim), interpreting-relating (taqqoslash va sharhlash), interaction (muloqot ko‘nikmalari) va critical cultural awareness (tanqidiy madaniy anglash) komponentlariga ajratildi.

Tadqiqotning empirik qismi 120 nafar talaba ishtirokida o‘tkazildi. Ular ikki guruhga - tajriba va nazorat guruhiga ajratildi. Dastlabki bosqichda Intercultural Sensitivity Scale, Cultural Intelligence Scale, hamda CEFR asosidagi o‘zini baholash anketalari yordamida talabalar madaniy kompetensiyasi diagnostika qilindi. Keyingi bosqichda tajriba guruhiga madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion texnologiyalar paketi qo‘llandi: CLIL asosidagi integratsiyalashgan darslar, raqamli muzeylar orqali virtual sayohatlar, cultural case-study lar, ingliz tilida milliy mavzularni taqdim etishga qaratilgan digital storytelling, Padlet platformasida madaniy xaritalar yaratish, Edpuzzle orqali madaniy videolarni tahlil qilish, interaktiv debatlar va jamoaviy loyiha ishlari shular jumlasidandir.

Pedagogik o‘zgarishlarni baholash uchun maxsus ishlab chiqilgan rubrika qo‘llandi. Rubrikada har bir kompetensiya bo‘yicha 5 daraja belgilangan bo‘lib, talabalar o‘zlashtirish darajasi semestr boshida va oxirida qayta o‘lchandi. Statistik tahlil sifatida o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichlar, protsent o‘zgarish dinamikasi va Pearson χ^2 testi qo‘llanildi [6].

Natijalar

Boshlang‘ich diagnostika natijalari talabalar milliy va umummadaniy kompetensiyalarining past darajada shakllanganligini ko‘rsatdi. 120 talabaning 68 foizi madaniyatlararo moslashuvda qiynalishini, 57 foizi xorijiy madaniyatlar bo‘yicha bilimining yetarli emasligini, 49 foizi esa o‘z milliy madaniyatini ilmiy-nazariy asosda izohlashda qiyinchilikka duch kelishini bildirdi. Bu ko‘rsatkichlar amaldagi metodik yondashuvlarda madaniy komponentning yetarli darajada integratsiyalashmaganligidan dalolat beradi [7].

Tajriba jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash sezilarli natija berdi. Virtual muzeylar orqali o‘rganilgan madaniy obyektlar, ingliz tilida tayyorlangan milliy video-esse, madaniy vaziyatlar asosidagi case-study tahlili talabalar tafakkurida keng qamrovli o‘zgarishlar yasadi. Tajriba guruhida madaniy bilimlar 38 foizga, madaniy vaziyatlarni sharhlash ko‘nikmasi 41 foizga, madaniy muloqot strategiyalari 36 foizga, milliy identitetni anglash esa 33 foizga oshgani kuzatildi. Nazorat guruhida esa bunday o‘shish ko‘rsatkichlari juda minimal bo‘lib, 5-9 foiz oralig‘ida bo‘ldi.

Tajribada ayniqsa interaktiv metodlarning samaradorligi katta bo‘ldi. Talabalar ingliz tilini faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki madaniy mazmunlarni yetkazuvchi universal aloqa kanali sifatida ko‘ra boshladi. CLIL darslarida “Uzbek Ceremonial Culture in Comparison with British Traditions”, “National Identity through Language”, “Cultural Stereotypes and Communication Barriers” kabi mavzular chuqur tahlil qilinishi ularning madaniy bilimlarini kengaytirdi, tanqidiy fikrlashni rivojlantirdi [8]. Virtual sayohatlar orqali talabalar Britaniya muzeylari, milliy kutubxona, madaniy markazlar bilan tanishib, ularni o‘z madaniyati bilan solishtirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Taqqoslash jarayoni madaniy tafovutlarni tushunish, umumiyliklarni ko‘ra olish va xalqaro madaniy muloqotdagi o‘z o‘rnini belgilash kabi ko‘nikmalarni shakllantirdi.

Muhokama

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy til o‘qitish metodlari hozirgi global kompetensiyalar talabiga to‘liq javob bermaydi. Til o‘rganish jarayonida grammatik yondashuv ustun bo‘lgan taqdirda, talaba madaniy kontekstdan uzilib qoladi, tilning ijtimoiy-madaniy mohiyati tushunilmaydi. Bu esa muloqotda stereotiplar, noto‘g‘ri talqin, madaniy moslashuvning sustligiga olib keladi. Innovatsion texnologiyalar esa bu kamchiliklarni samarali bartaraf etishga imkon berishi isbotlandi. Tadqiqot davomida shuningdek talabalarning nazariy bilimdan amaliy faoliyatga o‘tishidagi farqlar sezildi. Dars jarayonida ingliz tilida milliy mavzularni taqdim qilish talabalarning milliy identitetni yangicha talqinda anglashiga sabab bo‘ldi. Bu jarayon Vygotskiyning sotsiokonstruktiv nazariyasiga mos tarzda “ma’no yaratish”ning faol bosqichiga aylandi. Talaba o‘z madaniyatini ingliz tilida izohlash jarayonida nafaqat lingvistik, balki tafakkur darajasidagi o‘zgarishni boshdan kechirdi [9]. Demak, madaniy kompetensiyaning shakllanishi til o‘qitishning mazmuniy asosida sodir bo‘ladi, u sun’iy emas, balki tabiiy integratsiya talab qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy ta’lim paradigmasining ajralmas, strategik muhim yo‘nalishi ekanini tasdiqladi. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro hamkorlikning kengayishi va xalqaro muloqot madaniyatining chuqurlashuvi ingliz tili o‘qituvchisidan nafaqat til bilimlarini, balki milliy madaniyatni anglash, boshqa xalq madaniyatlariga hurmat, madaniy tafovutlarni to‘g‘ri talqin qilish, kommunikativ vaziyatlarda moslashuvchanlik kabi murakkab kompetensiyalarni talab qiladi. Shu sababli madaniy kompetensiyalarni shakllantiruvchi pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish bugungi kunning fundamental ehtiyojidir [10].

Tajriba natijalari CEFR descriptorlari bilan ham mos keladi. Talabalar “Can act effectively in intercultural situations”, “Can compare cultural features”, “Can interpret cultural behaviours” kabi kompetensiyalar bo‘yicha sezilarli o‘shishni namoyish etdi. Demak, mazkur model xalqaro talablarga mos, amaliy samaradorlikka ega.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni takomillashtirish uchun innovatsion texnologiyalar, integratsiyalashgan metodlar, interfaol madaniy topshiriqlar samarali vosita ekanligi isbotlandi. Tajriba jarayonida qo‘llangan CLIL asosidagi madaniy darslar, virtual sayohatlar, madaniy case-study lar, digital storytelling, madaniy taqqoslashga qaratilgan interaktiv platformalar talabalar kompetensiyasini 5-7 baravar tezroq rivojlantirdi. Mazkur model ingliz tili o‘qituvchilarini global raqobatbardosh, madaniyatlararo muloqotga tayyor, milliy identiteti kuchli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili o‘qituvchilari tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish uchun asos bo‘la oladi. Taklif etilayotgan modelni keng ko‘lamda joriy etish pedagogik ta’limning mazmunini boyitadi, talabalarni xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh qiladi va milliy ta’lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Yakun sifatida aytish mumkinki, ushbu tadqiqotda taklif etilgan innovatsion pedagogik yondashuvlar ingliz tili o‘qituvchilarini xalqaro me’yorlarga mos ravishda tayyorlashning samarali usuli hisoblanadi [11]. Model ta’lim jarayoniga to‘liq tatbiq etilganda, u o‘qituvchilarni global kommunikatsiyada faol ishtirok eta oladigan, madaniyatlararo ko‘nikmalari rivojlangan, milliy identitetini chuqur anglagan kompetent mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa O‘zbekiston ta’lim tizimida sifat o‘zgarishlarini amalga oshirish, zamonaviy o‘qituvchilar avlodini yetishtirish yo‘lida muhim qadamlardan biridir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Byram, M. *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 124 p.
2. Bennett, M.J. *Developing Intercultural Sensitivity: An Integrative Approach to Global and Domestic Diversity*. – Boston: Intercultural Press, 2004. – 201p.
3. Deardorff, D.K. *The SAGE Handbook of Intercultural Competence*. – Los Angeles: SAGE Publications, 2009. – 550 p.
4. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume*. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. – 228 p.
5. Hofstede, G. *Culture’s Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations*. – Thousand Oaks: SAGE Publications, 2001. – 596 p.
6. Hall, E.T. *Beyond Culture*. – New York: Anchor Books, 1989. – 256 p.
7. Kramsch, C. *Language and Culture*. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 134 p.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

8. Tomalin, B., & Stempleski, S. *Cultural Awareness*. – Oxford: Oxford University Press, 1993. – 112 p.
9. Brown, H. D. *Principles of Language Learning and Teaching*. – New York: Pearson Education, 2007. – 410 p.
10. Byron, D. *Intercultural Communication in Foreign Language Education*. – Journal of Intercultural Studies, 2014. – Vol. 35(3). – P. 258–274.
11. Jamalov X. *Innovatsion pedagogik texnologiyalar va xorijiy til o‘qitish metodikasi*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 210 b.